

QATAR TURIZM INDUSTRIYASINI RAQAMLASHTIRISH BOSQICHLARI VA YO‘NALISHLARI

Abdullayev Ravshan Vaxidovich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, i.f.d.

E-mail: ravshan.v.abdullaev@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qatar davlati iqtisodiyoti, xususan, turizmga raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hamda uning muhim yo‘nalishi bo‘lgan "Buyumlar interneti" (IoT) industriyasining rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada raqamlashtirishning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, buyumlar interneti (IoT) industriyasi, aqlli shaharlar, aqlli mehmonxonalar, aqlli ekskursiyalar, Qatar Tourism, onlayn bronlashtirish, onlayn turizm xizmatlari.

Аннотация

В данной статье освещено внедрение цифровых технологий в экономику Государства Катар, в частности, в туризме, а также этапы развития индустрии «Интернета вещей» — IoT. Также в статье раскрывается положительное влияние цифровизации на экономику страны.

Ключевые слова: цифровые технологии, интернет вещей-индустрия (IoT), умные города, умные отели, умные туры, Катар Туризм, онлайн-бронирование, онлайн-туристические услуги.

Abstract

This article covers the introduction of digital technologies into the economy of the State of Qatar, in particular, in tourism, as well as the stages of development of the Internet of Things industry (IoT). The article also reveals the positive impact of digitalization on the country’s economy.

Keywords: digital technologies, Internet of Things (IoT) industry, smart cities, smart hotels, smart tours, Qatar Tourism, online booking, online tourism services.

KIRISH

Bugungi kunga kelib, turizm industriyasi xalqaro xizmatlar savdosi sohasida nisbatan dinamik tarzda rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biriga aylanib ulgurdi. Xalqaro Sayohat va Turizm Hay’ati (WTTC) ma’lumotlariga ko‘ra, joriy asr boshidan hozirga qadar dunyo bo‘yicha xorijiy sayyohlar sonining yillik o‘shish sur’ati o‘rtacha 5 foizdan ziyod, turizmdan keladigan daromad esa o‘rtacha 14 foizdan oshib bormoqda [1]. Shuningdek, Yaponiyaning Osaka shahrida bo‘lib o‘tgan Turizm liderlarining xalqaro anjumanida qabul qilingan Deklaratsiyada mazkur sohaning milliy iqtisodiyotlarga qo‘shayotgan salmoqli hissasi inobatga olinib, “turizm — zamonaviy iqtisod fenomeni” deb e’tirof etilgan [2].

Raqamli texnologiyalarning misli ko‘rilmagan darajada o‘shishi va uning jahon iqtisodiyoti tarmoqlariga, xususan, turizm industriyasiga shiddat bilan kirib borishi natijasida, so‘nggi yillarda mazkur sohalar rivojida sezilarli ijobiy siljishlar ko‘zga tashlana boshladi. Ayniqsa, "Buyumlar interneti" (IoT) industriyasi jahon

iqtisodiyotning turli jabhalarida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Qatar mamlakati ushbu texnologiyalardan unumli foydalanib, turizm sohasidagi nufuzini yanada mustahkamlamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi besh-olti yil ichida O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday deyilgan: “Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda” [3]. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish, pirovardida, turizmni iqtisodiyotning lokomotiv sohalaridan biriga aylantirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan sanaladi [4].

Qatar turizmi haqida maxsus tadqiqotlar ko‘p bo‘lmasa-da, bir qator maqolalar chop etilgan. Jumladan, TDSHU tadqiqotchilari Yu. Axmedova va Sh. Ostonovalar tomonidan nashr etilgan “Qatarda turizmning rivojlanishi” nomli maqolada ta’kidlanishicha, Qatar davlatida turizm mamlakatdagi eng ustuvor 5 ta yo‘nalishdan biri hisoblanadi. Xususan, Doxa, Al-Vakra va Al-Xaur kabi yirik shaharlarda turistik infratuzilma shiddat bilan rivojlanmoqda (Axmedova, Ostonova, 2023).

Qatarda 20 milliard rial (taxminan 5,5 milliard AQSH dollari) qiymatidagi yirik “**Simaisma**” loyihasi taqdim etildi. Ushbu obyekt Dohadan 40 daqiqalik masofada shimolda, 8 million kvadrat metr maydonni egallagan holda joylashadi [5].

Qatar turizmni rivojlantirish bo‘yicha ulkan rejalarni amalga oshirib, infratuzilma, mehmonxona biznesi va xorijiy mehmonlarni jalb qilish uchun madaniy tashabbuslarga sarmoya kiritmoqda [6].

Jahon Sayyohlik va Turizm Kengashi 2020-yil davomida pandemiya oqibatida dunyo bo‘ylab sayyohlik va turizm industriyasida 50 million ish o‘rni qisqarganini qayd etmoqda (Xudayarov, 2020) [8]. Ammo shunga qaramay, pandemiya davrida Qatarda turizm industriyasini raqamlashtirish jarayonlari jadal sur‘atlarda olib borildi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo‘llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qatar davlati turizm industriyasi jadal rivojlanayotgan ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiradi. Uning poytaxti Doxa shahri zamonaviylik va tarixiy an‘analar uyg‘unlashgan holda dinamik rivojlanib borayotgan megapolislardan biri hisoblanadi. Bu shaharda MICE turizmi, ya‘ni yuqori darajadagi anjuman va simpoziumlarni o‘tkazish, xalqaro miqyosda sport musobaqalarini tashkil etish hamda maroqli dam olish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Xorijlik biznesmenlarga samarali muloqotlar o‘tkazishlari uchun zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlangan kongress-markazlar va oliy darajadagi individual servis xizmatlari taklif etiladi.

Shuningdek, Qatar *“aqlii shaharlar”* konsepsiyasini hayotga tatbiq etuvchi ilgʻor davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda IoT texnologiyalari nafaqat shahar infratuzilmasiga, balki turizm sohasidagi xizmatlarni rivojlantirishga ham katta taʼsir koʻrsatmoqda. Masalan, *“aqlii mehmonxonalar”* va ularning raqamli boshqaruv tizimlari sayyohlarga yuqori darajada qulaylik yaratadi. IoT uskunalari orqali mehmonxonadagi xona haroratini mehmonlar masofadan nazorat qilish, xizmatlarni onlayn buyurtma qilish va tezkor aloqa orqali muammolarni hal etish imkoniyatiga ega boʻladi.

Bundan tashqari, Qatar aeroportlari va transport tizimida IoT vositalari orqali yoʻlovchilar harakatini kuzatish, oqilona yoʻnalishlarni belgilash va vaqtni tejashga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilgan. IoT texnologiyalari Qatarining jahon miqyosidagi turistik jozibadorligini oshirishda muhim oʻrin tutmoqda. Ushbu texnologiyalar sayyohlarga tezkor, qulay va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taqdim etish imkonini beradi. Hozirda quyida keltirilgan sohalarda IoT texnologiyalaridan samarali foydalanilmoqda:

Raqamli yoʻl koʻrsatkichlar va maʼlumot platformalari: Turistik joylardagi raqamli yoʻl koʻrsatkichlar IoT asosida ishlaydigan qurilmalar bilan integratsiya qilingan boʻlib, sayyohlarga yaqin atrofdagi maʼlumotlar, restoranlar, doʻkonlar va tarixiy obidalar haqida maʼlumot beradi.

Aqlii ekskursiyalar: IoT texnologiyalari asosidagi audio va video qurilmalar orqali sayyohlar oʻzlari uchun eng qiziqarli maʼlumotlarni olishlari mumkin. Masalan, QR-kod orqali tarixiy obidalar haqida maʼlumotlar tinglanadi.

Transportning oqilona boshqaruvi: IoT tizimlari sayyohlarning harakatlanishini osonlashtirish uchun transport jadvali, tirbandliklar va yoʻnalishlar boʻyicha tezkor maʼlumotlarni taqdim etadi.

Shubhasiz, raqamlashtirish boʻyicha amalga oshirilayotgan barcha loyihalar bevosita yoki bilvosita mamlakatda turizm industriyasining ravnaqiga hissa qoʻshmoqda. 2020-yilda Qatarga 582 ming sayyoh tashrif buyurgan boʻlsa, 2022-yilga kelib, bu koʻrsatkich 2,6 mln. kishini tashkil etdi. Raqamlardan koʻrinib turibdiki, kovid pandemiyasi davrida tashriflar soni oʻzining eng past darajasiga tushgan. Ammo tez orada u 2015-yildagi oʻzining rekord darajasiga (2,9 mln.) yaqinlashgan. Bundan kelgan daromad 2020-yilda 14 mlrd. AQSH dollarini va uning YAIM dagi hissasi 9,4 foizni tashkil etgan. “Qatar Tourism” tashkiloti eʼlon qilgan maʼlumotlarga koʻra, 2023-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijliklar soni 4,05 mln. kishini tashkil etgan [5].

Qatar Ichki ishlar vazirligi bergan maʼlumotlarga koʻra, joriy yilning iyun oyiga qadar mamlakatga 2 639 000 nafar sayyoh tashrif buyurgan. Ushbu raqamlardan koʻrinib turibdiki, 2024-yilning yarmidayoq 2022-yil darajasiga chiqqan. Buni davlatlar kesimida koʻradigan boʻlsak, eng koʻp tashrif Saudiya Arabistonidan (29%) boʻlgani va keyingi oʻrinlarda esa Hindiston (8%), Bahrayn (5%), Quvayt (4%), Oʻmon (4%), Germaniya (4%), AQSH (3%), BAA (3%), Italiya (2%) turganini koʻramiz [6].

Maʼlumki, Qatar davlati 2022-yilda boʻlib oʻtgan futbol boʻyicha jahon chempionatiga tayyorgarlik koʻrish asnosida mehmonxona industriyasi va boshqa

infrastruktura loyihalariga jami 220 mlrd. dollar miqdorida mablag‘ investitsiya qildi. Sport tadbirlariga bir paytning o‘zida 1,4 mln. kishi tashrif buyurgan. Mazkur chempionat davomida 64 ta musobaqa o‘yinlari o‘tkazilgan bo‘lsa, ularda 3,4 mln. kishidan ziyod tomoshabin bevosita ishtirok etgan [10]. Yuqori saviyada o‘tgan bu tadbirlar Qatarining xalqaro miqyosda yirik sport musobaqalari va boshqa xalqaro tadbirlar o‘tkaza olish salohiyatiga ega ekanini yorqin namoyon etdi. Endilikda esa hukumat oldida turgan eng muhim vazifa yaratilgan turistik infrastrukturadan to‘laonli foydalanish bo‘lib qolmoqda.

“Qatar Tourism” tashkiloti rahbarining ta’kidlashicha, Qatar 2030-yilga qadar sayyohlar sonini yiliga 6 mln. kishiga, shuningdek, turizmning YAIM dagi hissasini 7 foizdan 12 foizga ko‘tarishni rejalashtirgan [11].

So‘nggi yillarda Qatar hukumati tomonidan turizmni raqamlashtirish strategiyasi ishlab chiqilib, unga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Mamlakatda turizm sohasiga raqamli texnologiyalarning faol joriy etilishi uning raqobatbardoshligini oshirish va ko‘proq xalqaro sayyohlarni jalb etishda muhim rol o‘ynamoqda. Shubhasiz, ushbu sa’y-harakatlar neft va gaz sektoriga qaramlikni kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli iqtisodiy diversifikatsiya strategiyasining bir qismidir.

Quyidagi jadvalda Qatar turizm industriyasini raqamlashtirish jarayonlari hamda onlayn xizmatlarining ulushining qay tarzda ortib borganini kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Qatar turizm industriyasini raqamlashtirish¹


Yillar	Turistlar soni (mln)	Onlayn bronlashtirish (%)	Turizmni raqamlashtirish darajasi (%)	Onlayn turizm xizmatlari soni (ming)
2018	2,1	35	40	120
2019	2,3	40	45	135
2020	0,7	55	50	150
2021	1,2	60	60	180
2022	2,0	70	70	200

Raqamlardan ko‘rinib turibdiki, 2020-yilda Covid pandemiyasi sababli turistlar soni birmuncha pasaygan bo‘lsa-da, raqamli xizmatlardan foydalanish muntazam tarzda oshib borgan. Xususan, mazkur davr mobaynida onlayn bronlashtirish, turizmni raqamlashtirish darajasi, va onlayn turizm xizmatlari soni deyarli ikki baravardan oshgan.

Qatar hukumati turizm sanoatini raqamlashtirish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda. Turistlar uchun onlayn bronlash, raqamli gid xizmatlari, va mobil ilovalar orqali qulayliklar yaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar turizm sanoatining raqamlashtirilishiga hissa qo‘shib, turistlar tajribasini yaxshilashga qaratilgan.

Qatarida 2015-yildan hozirga qadar turizm sohasini raqamlashtirish bo‘yicha quyidagi asosiy bosqichlar amalga oshirildi (1-rasm):

¹ Qatar National Tourism Council tegishli yillardagi ma’lumoti



1-rasm. Qatarda turizm sohasini raqamlashtirishning asosiy bosqichlari¹

1. Boshlang'ich qadamlar (2015-2016 yy.):

➤ 2015-yil: Qatar Milliy Turizm Kengashi (QNTC) turizm sohasini raqamlashtirish bo'yicha dastlabki tadqiqotlarni boshladi.

➤ 2016-yil: Turistlar uchun onlayn axborot platformalari va mobil ilovalar yaratish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi.

2. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish (2017-2018 yy.):

➤ 2017-yil: Turistik obyektlar va mehmonxonalar uchun onlayn bronlash tizimlari joriy etildi.

➤ 2018-yil: Turizm sohasidagi tadbirlar va xizmatlar uchun elektron to'lov tizimlari ishga tushirildi.

3. Smart texnologiyalarni joriy etish (2019-2020 yy.):

➤ 2019-yil: "Smart Qatar" dasturi doirasida turistlar uchun raqamli gid va virtual reallik xizmatlari taqdim etildi.

➤ 2020-yil: COVID-19 pandemiyasi munosabati bilan onlayn turlar va virtual ekskursiyalar tashkil etildi.

4. Raqamli marketing va ma'lumotlar tahlili (2021-2022 yy.):

➤ 2021-yil: Turistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish uchun Big Data texnologiyalari joriy etildi.

➤ 2022-yil: Turizm sohasida raqamli marketing kampaniyalari orqali Qatarining jozibadorligi oshirildi.

5. To'liq raqamlashtirish va innovatsiyalar (2023-2024 yy.):

➤ 2023-yil: Turistlar uchun blokcheyn texnologiyalari asosida xavfsiz va shaffof xizmatlar taqdim etildi.

¹ Muallif ishlanmasi

➤ 2024-yil: Turizm sohasida sun'iy intellekt va IoT texnologiyalari keng joriy etildi.

Yuqorida keltirilgan bosqichlardan ko'rinib turibdiki, Qatarda turizm sohasini raqamlashtirish jarayonlarining izchil olib borilgan.

Qatarda Narsalar Interneti — IoT texnologiyalarining rivojlanishi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Boshlang'ich bosqich (2013-2015-yillar):

➤ 2013-yil: Qatar Milliy Kengashi "Qatar Milliy Broadband Strategiyasi"ni e'lon qildi, bu raqamli infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan dastlabki qadamlardan biri bo'ldi.

➤ 2014-yil: "Qatar Milliy Kengashi" va "Microsoft" kompaniyasi hamkorlikda "Qatar Smart Shahar" loyihasini boshladi, bu IoT texnologiyalarini shahar infratuzilmasiga joriy etishga qaratilgan edi.

2. Tadqiqot va tajriba-sinov loyihalari (2016-2018-yillar):

➤ 2016-yil: "Qatar Universiteti"da IoT texnologiyalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar boshlandi, bu sohadagi mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan edi.

➤ 2017-yil: "Qatar Fondi" "Smart Qatar" dasturini e'lon qildi, bu mamlakatda IoT texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan edi.

3. Infratuzilmani rivojlantirish (2019-2021-yillar):

➤ 2019-yil: "Qatar Telekommunikatsiya Kompaniyasi" 5G tarmog'ini ishga tushirdi, bu IoT qurilmalarining yuqori tezlikdagi internetga ulanishini ta'minladi.

➤ 2020-yil: "Qatar Milliy Bank" IoT texnologiyalarini bank xizmatlariga joriy etish bo'yicha loyihalarni boshladi.

4. Keng ko'lamli joriy etish (2022-2024-yillar):

➤ 2022-yil: "Qatar Milliy Kengashi" IoT texnologiyalarini qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va transport sohalarida joriy etish bo'yicha dasturlarni amalga oshirdi.

➤ 2023-yil: "Qatar Smart Shahar" loyihasi doirasida IoT asosidagi "aqlli" yo'llar va transport tizimlari ishga tushirildi.

5. Yangiliklar va global yetakchilik (2025-yil va keyingi davr):

➤ 2025-yil: Qatarda IoT texnologiyalari asosida "aqlli" uylar va ofislar keng tarqaldi, bu esa mamlakatni mintaqadagi raqamli texnologiyalar bo'yicha yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi.

Mazkur bosqichlar Qatarda IoT texnologiyalarining izchil va tizimli rivojlanishidan dalolatdir. IoT texnologiyalarining mamlakat iqtisodiyotiga, xususan, turizm sohasiga tatbiq etilishi Qatar davlatini majmuaviy rivojlantirish milliy strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. **"Qatar milliy manzarasi-2030" dasturi** doirasida mamlakat turizmni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga intilmoqda.

Albatta, bu uzoq muddatli strategiya bo'lib, u Qatarni tubdan o'zgartirishga qaratilganidir. Binobarin, mazkur texnologiyalarning turizm industriyasi rivojiga ijobiy ta'siri quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Raqamli sayohatchilar sonining o'sishi: Zamonaviy sayyohlar o'z sayohatlarini tobora ko'proq onlayn rejalashtirmoqda. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, sayyohlarning 70 foizdan ortig'i chipta, mehmonxona va sayohatlarni band qilish uchun raqamli platformalardan foydalanadi. Bu esa o'z xizmatlarini raqamli kanallarga moslashtirmagan kompaniyalar raqobatbardoshligini yo'qotayotganini ko'rsatadi.

Qaror qabul qilish jarayonining tezlashuvi: Raqamli texnologiyalar sayohatlarni rejalashtirish jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi. Zudlik bilan band qilish imkoniyatiga ega platformalar va mobil ilovalar sayyohlarga bir necha daqiqa ichida yo'nalishlarni tanlash, narxlarni solishtirish va xizmatlarni band qilish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, "so'nggi daqiqada sayohat qilish" (last-minute travel) ommalashayotgan sharoitda dolzarbdir.

Turistik tajribani shaxsiylashtirish: Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar kabi raqamli texnologiyalar sayyohlarning afzalliklarini tahlil qilish va ularga individual marshrutlar, xizmatlar hamda chegirmalarni taklif etish imkonini beradi. Shaxsiylashtirish mijozlarni jalb qilish va ushlab turishning asosiy omili bo'lib qolmoqda, chunki zamonaviy sayohatchilar noyob va esda qolarli taassurotlarga intiladilar.

Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish: Chat-botlar, virtual yordamchilar va onlayn gidlar kabi raqamli yechimlarni joriy etish orqali sayyohlar kecha-yu kunduz ma'lumot va yordam olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu mijozlarning qoniqishini sezilarli darajada oshiradi va xodimlarga tushayotgan yukni kamaytiradi.

Xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni oshirish: Turizmning globallasuvi mamlakatlar va mintaqalar o'rtasida sayyohlarni jalb qilish bo'yicha raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday raqobat sharoitida raqamlashtirish turizm xizmatlarini targ'ib qilish, xalqaro bozorlarda ko'rinishni oshirish va noyob takliflarni yaratishning muhim vositasiga aylanmoqda.

Iqtisodiy samaradorlik: Raqamlashtirish kompaniyalar ichki jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish imkonini beradi. Masalan, band qilish jarayonlarini avtomatlashtirish yoki elektron to'lov tizimlarini joriy etish operatsion xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qatar davlati bugungi kunda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ya'ni mamlakatni gaz va neft eksportiga qaramlikdan xalos etish maqsadida iqtisodiyotning boshqa sohalariga, xususan, xalqaro turizmni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Pirovardida, Qatar turizm industriyasi barqaror o'sish tendensiyasini saqlab qolmoqda. IoT texnologiyalari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va turizm sohasidagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali Qatar nafaqat o'z turistik jozibadorligini oshirmoqda, balki mehmonlarga zamonaviy va qulay xizmatlar ko'rsatib, ularning taassurotlarini kuchaytirmoqda. IoT texnologiyalarining kelgusi rivojlanishi Qatar turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasiz.

Qatar davlatining turizm sohasidagi, xususan, turizmga raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish bo'yicha tajribasini chuqurroq o'rganish va uni O'zbekiston sharoitida keng tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Осакая декларация современности (Принята Конференцией лидеров туризма Тысячелетия 30 сентября-1 октября 2001. в г. Осака, Япония) <http://www.unwto.org>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan, 28.12.19 y. <https://president.uz/oz/lists/view/2228>
3. Абдуллаев Р. Туризм Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатлари иқтисодиёнини устувор йўналиши сифатида. SHARQSHUNOSLIK. №3, 2019. Б.135.
4. <https://www.qatartourism.com/en/news-and-media>
5. <https://www.qatartourism.com/content/dam/qatar-tourism>
6. Ахмедова Ю., Остонова Ш. Развитие туризма в Катаре. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage. №3, 2023.
7. Худояров А.А. Ўзбекистонда зиёрат туризми бозорини ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. – Тошкент: Complers Print, 2020.
8. Qatar Milliy Turizm Kengashi (Qatar National Tourism Council) tegishli yillardagi ma'lumotlari.
9. <https://www.unwto.org/news/un-conference-on-least-developed-countries>
10. <https://tourcode.kz/specialistam/novost/katar-zapuskaet>
11. <https://eurasiagulf.org/ru/doing-business>